QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR KENGASHINING QARORI

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ MINISTRLER KEŃESINIŃ QARARÍ

2023 - yil 18 - fevral | 70-13-0-Q/23 | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

**Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari asosida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo‘yicha Kuzatuv kengashining hududiy jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Taxiatosh tumanida renovatsiya (qayta qurish) uchun jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrdagi 1047-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo‘yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo‘yicha markazlashtirilgan jamg‘armalar mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 12-bandiga asosan va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining 2023-yil 9-fevraldagi 1084-sonli qarori va Kuzatuv kengashining 2023-yil 15-fevraldagi 04-08/7-02/92-sonli bayonini inobatga olib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2019-yil 13-apreldagi 138-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin va Taxiatosh tumani hokimligining 2022-yil 4-avgustdagi 3023-01-sonli, 2022-yil 29-sentyabrdagi 3906/01-sonli va 2023-yil 13-yanvardagi 178-01-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Taxiatosh tumani hokimligi (A.Amanov) davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo‘yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish bo‘yicha, Kuzatuv kengashiga taqdim etilgan har bir hujjatning qonuniyligiga bevosita mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

3. Hududiy jamg‘armaning ishchi organi (Moliya vazirligi) hujjatlarni tegishli tartibda o‘rganib chiqib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo‘yilishi munosabati bilan

jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan jamg‘armaga mablag‘ ajratish bo‘yicha kuzatuv kengashining 2023-yil 15-fevraldagi 04-08/7-02/92-sonli bayoni asosida **4 377 193 008** (to‘rt milliard uch yuz yetmish yetti million, bir yuz to‘qson uch ming sakkiz) so‘m mablag‘larni ilovaga muvofiq Taxiatosh tumani hokimligiga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratish choralarini ko‘rsin.

4.Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Davlat Moliyaviy nazorat boshqarmasiga (B.Utambetov) ajratilgan mablag‘larning qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda maqsadli sarflanishini nazorat qilish so‘ralsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari E.Atashov, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vaziri, Kuzatuv kengashi ishchi organi M.Sodiqov va Taxiatosh tumani hokimi v.v.b (A.Amanov) zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi** **F.Ermanov**

Qoraqalpog’iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 18 fevraldagi
70-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Taxiatosh tumanida joylashgan avariya holatidagi ma'nan eskirgan ko'p kvartirali uy-joylarni renovatsiya (qayta qurish) dasturiga muvofiq baholash tashkilotlari tomonidan baholangan kompensatsiya pullarini to'lab berish haqida**

| № | F.I.SH. | Manzili | Maydoni (Kv/m) | Bahosi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Yendirbaeva Rano | Energetik ko'chasi 3 uy 3 xona | 79,81 | 168 472 060 |
| 2 | Urimbetov Sadulla | Babanov ko'chasi 62 uy 3 xona | 54,72 | 105 463 869 |
| 3 | Abdullaev G'urbangeldi | Energetik ko'chasi 11“a” uy 3 xona | 50,44 | 93 660 022 |
| 4 | Pirjanov Maxsetbay, Pirjanov Amir | Babanov ko'chasi 59“a” uy 1 xona | 79,50 | 146 116 759 |
| 5 | Radjapov Farrux | Abdambetov ko'chasi 10 uy 12 xona | 56,68 | 104 174 817 |
| 6 | Akmoldaeva Baltagul | Abdambetov ko'chasi 12 uy 15 xona | 61,71 | 113 473 430 |
| 7 | Muxanov Bazarbay | Mamanbiy ko'chasi 6 в uy 6 xona | 45,60 | 72 133 688 |
| 8 | Gopanenko Tatyana | Abdambetov ko'chasi 10 uy 7 xona | 80,10 | 147 286 500 |
| 9 | Gopanenko Tatyana | Abdambetov ko'chasi 10 uy 8 xona | 64,80 | 119 155 290 |
| 10 | Nuranov Karamatdin | Mustaqillik ko'chasi 4 uy 14 xona | 25,04 | 51 050 537 |
| 11 | Xanafaeva Nuriya | Mamanbiy ko'chasi 6 в uy 3 xona | 46,20 | 70 316 920 |
| 12 | Davletnazarova Leyla | Energetik ko'chasi 3 uy 4 xona | 56,08 | 107 833 225 |
| 13 | Kaipova Ziybagul | Energetik ko'chasi 11“a” uy 2 xona | 25,36 | 53 019 599 |
| 14 | Gurbanbaev Bayramgeldi | Babanov ko'chasi 62 uy 16 xona | 54,54 | 105 367 563 |
| 15 | Kadirimbetova Gulsanem | Babanov ko'chasi 59 “a” uy 2 xona | 55,87 | 102 686 080 |
| 16 | Seytmusaeva Zamira, Sutbaeva Manshuk | Abdambetov ko'chasi 12 uy 10 xona | 66,07 | 140 953 549 |
| 17 | Yagmurov Amangeldi | Babanov ko'chasi 62 uy 7 xona | 78,96 | 147 889 685 |
| 18 | Suxarukova Tatyana | Mustaqillik ko'chasi 2 uy 8 xona | 24,44 | 47 003 389 |
| 19 | Adilov Salamatdin | Babanov ko'chasi 62 uy 5 xona | 73,45 | 150 426 454 |
| 20 | Urazimbetova Sayyora | Energetik ko'chasi 11“a” uy 8 xona | 24,02 | 44 168 455 |
| 21 | Matniyazova Dilfuza | Sh.Rashidov ko'chasi 13 uy 4 xona | 66,50 | 82 664 648 |
| 22 | Temirbaeva Guzzal | Abdambetov ko'chasi 12 uy 8 xona | 73,74 | 154 907 564 |
| 23 | Yeshimbetova Gulzira | Babanov ko'chasi 59 uy 2 xona | 42,25 | 104 396 260 |
| 24 | Yeshimbetova Gulzira | Babanov ko'chasi 59 uy 2 xona “Dukan” | 10,23 | 50 881 378 |
| 25 | Kan Valeriy | Energetik ko'chasi 7 uy 1 xona | 76,51 | 153 011 700 |
| 26 | Abibullaeva Bibijan | Energetik ko'chasi 7 uy 7 xona | 60,66 | 127 430 063 |
| 27 | Uzaqbergenova Nigarxan | Energetik ko'chasi 7 uy 8 xona | 82,66 | 173 646 043 |
| 28 | Ashirov Yaxshimurat | Energetik ko'chasi 10“a” uy 8 xona | 24,64 | 54 453 517 |
| 29 | Seytmuratova Zulxumar | Energetik ko'chasi 10“a” uy 5 xona | 23,50 | 51 934 158 |
| 30 | Jumasheva Gulshad | Energetik ko'chasi 10“a” uy 15 xona | 61,07 | 128 393 994 |
| 31 | Urazbaev Baxadir | Energetik ko'chasi 7 uy 6 xona | 79,75 | 183 659 540 |
| 32 | Matyakubova Dilfuza | Babanov ko'chasi 59 uy 5 xona | 52,07 | 114 547 787 |
| 33 | Reymbaev Rashid | Aqsungul ko'chasi 9 uy 10 xona | 77,13 | 170 277 629 |
| 34 | Shirov Rashit | Abdambetov ko'chasi 12 uy 4 xona | 53,44 | 123 039 235 |
| 35 | Kamalova Tatyana | Babanov ko'chasi 59 uy 3 xona | 83,03 | 191 154 050 |
| 36 | Xudaynazarova Sanom | Babanov ko'chasi 62 uy 4 xona | 82,62 | 170 493 155 |
| 37 | Taganberdiev Aralbay | Energetik ko'chasi 10“a” uy 12 xona | 49,65 | 104 301 065 |
| 38 | Sarsenbaeva Gulshat | Aqsungul ko'chasi 7 uy 3 xona | 80,10 | 147 349 331 |
| | | **Jami:** | | **4 377 193 008** |